

## I. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 18 741,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi 115,3 foizni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida 4 615,4 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020- yil yanvar-dekabr nisbatan 98,0 foizni tashkil etdi. Jumladan, 2 860,9 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 1 754,5 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2020- yil yanvar-dekabr nisbatan mos ravishda 97,9 foiz va 98,7 foiz) ishlab chiqarildi.

### Yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, (mlrd. so'mda)



## Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati



Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 157,7 mlrd. soʻmni oʻsish surʻati 104,3 % ni tashkil etdi.

Oʻz navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan ichimlik ishlab chiqarish 88,1 %ni, kiyim kechak ishlab chiqarish 93,3 % ni, toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa 126,2 %ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Iqtisodiy tarmoqlar kesimida oʻrganilganda, joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2 026,9 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi va oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati indeksi 105,5 %ni tashkil etdi.

Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan oʻsish surʻati indeksi tabiiy gaz 60,0 % ni, neft 83,5 %ni, kondensat qazib olish hajmi 53,5 %ni va boshqa togʻ-kon sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi oʻsish surʻati 42,6 %ni tashkil etdi.

## **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 4 415,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining 23,6 %ni ) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini mahsulotlari o‘shish sur‘ati indeksi o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 162,4 % ni tashkil etgan.

## **Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish**



Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 141,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda 2021- yil yanvar-dekabr oylarida suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 98,6 % ni tashkil etgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi**  
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati indeksi, foiz hisobida</i>
<b>Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi</b>	<b>18 741,1</b>	<b>115,3</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>2 026,4</b>	<b>105,5</b>
<i>ulardan:</i>		
Xom neft va tabiiy gaz qazib olish	871,8	84,7
<b>Qayta ishlash sanoati</b>	<b>12 157,7</b>	<b>104,3</b>
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	3 010,3	90,3
Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish	115,1	88,1
To'qimachilik buyumlari	4 040,6	126,2
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	3 699,8	103,1
Mebel ishlab chiqarish	90,3	79,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	367,2	107,6
Metallurgiya sanoati	84,5	82,5
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>4 415,1</b>	<b>162,4</b>
<b>Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>141,4</b>	<b>98,6</b>
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	4 615,4	98,0
<i>shu jumladan</i>		
Oziq-ovqat tovarlari	2 860,9	97,9
Nooziq-ovqat tovarlari	1 754,5	98,7




Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e‘tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta‘minlashda xususiy

biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalari tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 18 741,1 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki o‘shish sur‘ati indeksi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 115,3 % ni tashkil etdi, shuning bilan birga davlat sektorida 9 044,2 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib umumiy hajmga nisbatan 48,3 %ni tashkil etsada, nodavlat sektorida 9 696,8 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 51,7 %ni tashkil etdi.

#### **Davlat va nodavlat sektorlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish,%da**




Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko‘lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.

Tarmoq korxonalari tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 18 741,1 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi 115,3 %ni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili boʻlib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati oʻsish surʼati 105,5 %ni, qayta ishlash sanoati 104,3 %ni, elektr energiyasi, gaz, bugʻ va konditsiyalangan havo 162,4 %ni, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yigʻish va qayta foydalanish boʻyicha xizmatlar 98,6 %ni tashkil etdi.

### Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi

(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



■ **Tog'-kon sanoati**

■ **Qayta ishlaydigan sanoat**

■ **Elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo**

■ **Su ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash**

Элемент легенды 4

### Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish hajmi (yirik korxonalar boʻyicha)

	Oʻlchov birligi	2021- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan %da
--	-----------------	-------------------------	--

#### Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tabiiy gaz	mln. m <sup>3</sup>	1 445,1	60,0
------------	---------------------	---------	------


	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2020- yil yanvar-dekabr nisbatan %da</i>
Neft	<i>ming tn.</i>	26,1	83,5
Suyultirilgan gaz	<i>ming tn.</i>	137,2	96,8
Kondensat	<i>ming tn.</i>	151,4	53,5
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>			
Un	<i>tn.</i>	145809,4	95,4
Kaliy xlorid	<i>ming t K2O</i>	197,4	94,0
Omuxta yem	<i>tn.</i>	75 977	98,4
Tozalangan o'simlik moyi	<i>tn.</i>	3901,0	51,3
Makaron mahsulotlari	<i>tn.</i>	47,0	6,2
Aroq va likyor mahsulotlari	<i>ming l.</i>	2556,9	80,5
Vino mahsulotlari	<i>ming l.</i>	618,6	73,0
Kalava ip	<i>tn.</i>	30 574,0	117,5
Oltingugurt	<i>ming tn.</i>	1,1	100,3
Lint	<i>tn.</i>	5 203,0	130,0
Paxta tolasi	<i>tn.</i>	71 204,7	176,0
Paxta chigiti	<i>tn.</i>	101 154,0	154,3

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan %da</i>
Shrot va sheluxa	<i>tn.</i>	18 475,0	51,1
Xo'jalik sovuni	<i>tn.</i>	359,0	3,5 m.
Kaliy o'g'iti	<i>ming tn.</i>	197,4	94,0
Termoplast quvurlari	<i>tn.</i>	5 052	108,0
Polietilen	<i>tn.</i>	135 200,0	101,9
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	3 214,9	2,6 m.

### Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon tumani (Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmining 24,8 %), G'uzor tumani (18,1 %), Qarshi shahar (16,1 %), Kasbi tumani ( 5,9 %), Qarshi tumani (5,3 %) hissasiga to'g'ri keladi.

#### 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da






Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib Qashqadaryo viloyati va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o‘shish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 18 741,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 5 558,1 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati indeksi 113,2 %ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek viloyatda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarilishi aholi jon boshiga 1 368,8 ming so‘mni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 96,1 %ga yetdi.

### Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag‘batlantirish va turlarini kengaytirish, iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 98,0 %ni tashkil qilib, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 24,6 %ni tashkil etdi.


### Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da



Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 2 753,8 mlrd. so‘mga yetkazilib, jami iste‘mol tovarlaridagi ulushi 59,7 %ni, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1 754,5 mlrd. so‘m,


jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 38,0 %ni, alkohol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi esa 107,2 mlrd. so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 2,3 %ni tashkil etdi.

### Hududlarda iste'mol tovarlarining ulushi, % da




Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi eng yuqori ulushga ega bo'lgan Qarshi shahar (23,3 %), Chiroqchi tumani (12,9 %) tashkil etadi. Shu bilan birga eng kam ulushga ega bo'lgan Kasbi (2,2 %), Muborak (1,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

### Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining fizik hajm indeksi, % da (o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishda eng yuqori o'sish sur'atlari Kasbi tumani (163,9 %), Nishon tumani (146,3 %) kuzatilmoqda.

**Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarining o'sish sur'atlari**  
**% da**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan)




Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish sur'atlari Shahrisabz tumani (107,3 %), Dehqonobod tumani (106,0 %), Chiroqchi tumani (103,3 %), G'uzor tumani (103,0 %), Mirishkor tumani (102,5 %), Kasbi tumani (102,4 %) kuzatilgan.

### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda bir maromdagi o'sish kuzatildi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 26,3 %ni tashkil etdi.

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida tumanlar kesimida kichik biznesning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Kitob (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 98,7 %), Shahrisabz tumani (84,0 %) va Yakkabog' (80,7 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Kasbi (9,4 %), G'uzor (5,9 %), Nishon (4,3 %) tumanlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, (ming so'mda)**



Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi eng yuqori ko‘rsatkich Nishon tumaniga (29 562,3 ming so‘m), G‘uzor tumaniga (16 120,3 ming so‘m), Qarshi shahri (10 734,3 ming so‘m)ga to‘g‘ri keldi. Eng past ko‘rsatkich esa Qamashi tumani (1 706,5 ming so‘m), Kitob tumani (1373,9 ming so‘m) ga to‘g‘ri keldi.

### Hududlar kesimida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste‘mol tovarlarining hajmi, (ming so‘mda)



Hududlar kesimida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahri (3 834,6 ming so‘m), Shahrisabz shahri (2 201,6 ming so‘m), Shahrisabz tumani (2 111,6 ming so‘m), Chiroqchi tumani (1 396,8 ming so‘m) ga to‘g‘ri keladi. Eng past ko‘rsatkich esa Qamashi tumani (636,4 ming so‘m), Kasbi tumani (492,0 ming so‘m)ga to‘g‘ri keladi.

### ***Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi***

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 80 ta loyiha bo‘yicha 1144,8 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.


**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni  
mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**  
(yanvar-dekabr oylarida)

	2020- yil	2021- yil
Loyihalar soni, birlik	71	80
Korxonalar soni, birlik	34	44
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	176,1	1144,8
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh doll.	-	6,6
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	136	240

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 309,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 124,9 foizni tashkil etdi. O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 12,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 13,9 foizni tashkil etgan holda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 foizga ortgan.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi**




### ***Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonolari***

Bugungi kunda viloyatda 4727 ta sanoat korxonolari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 896 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 19,0 % ) Qarshi shahriga, 510 tasi (10,8 %) Kitob tumaniga, 432 tasi (9,1 %) Chiroqchi tumaniga, 416 tasi (8,8 %) Yakkabog' tumaniga, 354 tasi (7,5 %) Shahrisabz shahriga, 336 tasi (7,5 %) Qarshi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonolari soni, birlik**

*(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)*



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 1 358 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 17,2 foizi Qarshi shahriga, 9,9 foizi Chiroqchi, 8,9 foizi Yakkabog', 8,1 foizi G'uzor, 7,9 foizi Kasbi, 7,3 foizi Kitob, 7,1 foizi Qarshi, 6,6 foizi Shahrisabz shahar, 5,6 foizi Shahrisabz, 4,5 foizi Qamashi, 4,2 foizi Mirishkor, 3,8 foizi Koson, 3,5 foizi Dehqonobod 3,1 foizi Nishon hamda 2,6 foizi Muborak tumanlariga to'g'ri keladi.